

## RUS TILI DARSLARINI YANADA QIZIQARLI TASHKIL ETISH MASALALARI.

**Yakubova Zaytuna Zayniyevna**

*G'ijduvon tuman 1-sون kasb-hunar maktabi  
rus tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada interaktiv metodlar, rus tili darslarida zamonaviy metodlardan samarali foydalanish yo'llari haqida so'z borgan.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об интерактивных методах, способах эффективного использования современных методов на занятиях по русскому языку.

**Abstract:** This article discusses interactive methods and ways to effectively use modern methods in Russian language lessons.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, debatlar, til ko'nikmalar

**Key words:** interactive methods, debates, language skills

**Ключевые слова:** интерактивные методы, дебаты, языковые навыки

Bugungi kunda ta'limgiz tizimida interfaol, shaxsga yo'naltirilgan ta'limgiz metodlari kabi tushunchalar qo'llanilmoqda. Shu o'rinda interaktiv ta'limgiz metodlarining mohiyatini anglash har bir pedagogning muhim vazifasidir.

Interfaol va interaktiv so'zlar bir xil ma'noda bo'lib, interaktiv so'zi inglizcha "inter" - "birgalikdagi" va "act" - "harakatlanish" so'zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o'qituvchi) bilan bo'lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta'limgiz - avvalo dialogli ta'limgiz bo'lib uning davomida o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va kompyuter o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bu esa ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga olib keladi. O'quvchilar interfaol metodlar orqali darslarga qiziqish bilan qatnashadilar, bu ularning motivatsiyasini oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning birgalikda ishslash, muammolarni hal qilish va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlar o'quvchilarga tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi, buesaularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol metodlarning turlari ko'p. Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli vaziyatlarda tilni qo'llash imkoniyatini beradi. Munozaralar va muhokamalar o'quvchilarning fikrlash va o'z fikrlarini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ma'lumki, har bir xorijiy tilni o'rganishda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda har bir dars mashg'ulotida mazkur to'rtta ko'nikmani shakllantirishga e'tibor qaratishimiz zarur. Rus tili fanidan har bir mavzuda dars ishlanmalarini tayyorlash jarayonida o'quvchi yoshlarning mutaxassiligi, ularda kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini asosiy maqsad qilib belgilaymiz. Shunday metodlardan biri -bu muhokama, ya'ni debatlardir.

Debatlar o'quvchilarining tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishgayordamberadi. O'quvchilar biror mavzu bo'yicha ikki guruhga bo'linib, o'z fikrlarini himoya qiladilar. Bu usul o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirish va tilni amaliyotda qo'llashga yordamberadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarining qiziqishini oshirish va darslarni qiziqarli qilishchunqo'llaniladi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni o'rganadilar, grammatikqoidalarnimustahkamlaydilar va tilni amaliyotda qo'llaydilar. Interfaol taqdimotlar o'quvchilarining e'tiborini jalb qilish va mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Debatlarda yoshlar uchun qiziqarli, global mavzularni tanlay olish ham muhimdir. Bu ularning darsga, mavzuga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda rus tili fanlarini o'qitish metodologiyasi bo'yicha adabiyotlar, manbalar ko'p bo'lishiga qaramay, ularning hammasi ham kutilayootgan samarani bermayapti. Shu ma'noda, butun Respublika bo'yicha rus tilini o'qitish bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash masalalarida tanlovlardan, grantlar uyushtirib, mazkur tanlovlarning g'oliblari ishlarini ommalashtirishimiz kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. THE ROLE OF EDUCATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT: A THEORETICAL PERSPECTIVE. Ilhan OZTURK. Journal of Rural Development and Administration, Volume XXXIII, No. 1, Winter 2001, pp. 39-47.
2. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
4. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Gospodarka i Innowacje., 48, 715-720.
5. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lif muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

6. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innowacje., 46, 620-627.
7. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.
8. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.
9. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innowacje., 51, 191-195.

